



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi*

ADABIY TA'LIM DASTURLARIDA MAZMUNNING IFODALANISHI VA UZVIYLIK SHAKLLARINI QO'LLASH

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta'lim uzviyligini ta'minlashda uzviylik shakllarini qo'llash, adabiyot fanini o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish, uzviylikni ta'minlovchi muhim omillarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, adabiy ta'lim dasturlari, ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning xarakter xususiyatlari, adabiy ta'limga bo'lgan munosabat, adabiyot darslarini tashkil etish omillari ham tadqiq etilgan. Uzviylikning muhim shakllari sifatida mavzularni tadrijiy taqdim etish, o'quv dasturlaridagi uyg'unlikni birlashtirish, modulli bog'lanish, integrativ dasturlar yaratish, mavzulararo bog'liqlikni ta'minlash kabilar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: dasturlar tahlili, bosqichlararo uzviylik, uzluksizlik, adabiy ta'lim, sifat va samaradorlik, tamoyil, ta'lim tizimi.

Kirish. Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim uzviyligiga asoslangan bo'lib, buning natijasida barcha ta'lim turlari orasida muayyan izchillik ta'minlanishini taqozo etadi. Bu jarayonni amalga oshirish nafaqat ta'lim turlari orasida, balki har bir ta'lim turlarida o'qitiladigan fanlarning ichki (mavzulararo) uzviyligi, tashqi (fanlararo) uzviyligining ta'minlanishini ham nazarda tutadi.

Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inlari bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik lisey ta'lim jarayonining mazmuni va yangidan yaratiladigan darsliklarning mavzularini ifoda etibgina qolmay, balki o'quv muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga



olgan holda bo‘lajak yosh mutaxassislar egallashlari zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma hamda malakalarining hajmi va darajasini ham belgilab beradi. Shunday ekan, umumiy o‘rta ta‘limida adabiyot fani bo‘yicha o‘quv dasturlarini bir-biridan ajratib ko‘rsatish mumkin emas.

Bizningcha, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta‘limida umumta‘lim fanlari o‘quv dasturi orasidagi uzviylikni belgilab beruvchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri – ularning ixtisoslik o‘quv dasturiga mosligi hisoblanadi. Demak, har bir ta‘lim turida o‘quv dasturlari uzviyligini ta‘minlash ta‘lim tizimining uzviyligi va uzluksizligi, ta‘lim turlari va bosqichlari uzviyligiga asoslangan holda mavzulararo, fanlararo hamda nazariya va amaliyot uzviyligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Dasturlarning nazariy tahlili. O‘quv dasturlari uzviyligi tushunchasi ta‘lim yaxlitligi va tizimligi tushunchasi bilan bog‘liqdir. Ushbu muammoning yechimida adabiy ta‘lim mazmuni 5 – 9-sinflar hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi kesimidagi DTS va darsliklarning ilmiy tahlilini keltirish bilan cheklandik.

Adabiy ta‘limning uzluksizlik va uzviylik nuqtayi nazaridan 5–9-sinflar va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi dasturlarini ikki guruhga bo‘lib o‘rganamiz: birinchi guruhda 5–9-sinflarni adabiy ta‘limni o‘z ichiga oluvchi DTS, dastur va darsliklarni tahlil qildik.

Ilmiy izlanishimizning eng muhim tomoni tadqiqotning asosi sifatida qaralgan va ikkinchi yo‘nalishga kiritilgan uch asosiy mazmunli adabiy ta‘lim dasturi va darsliklaridagi: 1) adabiyot tarixiga doir ma‘lumotlarni o‘rganish, jumladan, adiblarning hayoti va ijodi; 2) adabiy-nazariy tushunchalarning asosi bilan tanishtirish; 3) o‘quvchilarning nutqini o‘stirish va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, deb belgilandi.

Tanlab olingan adiblarning hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risidagi tushunchalar 5–9-sinflar doirasida o‘rganishda an‘anaviy ta‘lim turidan farq qilgan holda yondashildi. Bunda o‘qitishning innovasion texnologiyalari asosiy o‘qitish metodi sifatida foydalanildi. Jumladan, 5-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan tushunchalardan tashqari o‘qituvchi dastur va darslikda ko‘rsatilgan talablarga muvofiq qo‘shimcha ravishda beshinchi sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli bo‘lgan yozuvchining ijodiy faoliyati, uning bolalik davri (milliy adabiy ta‘limda Navoiy), badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda o‘rganilishi kiritildi.

Agar biron bir darslikda barcha yozuvchilarning biografiyasi borasidagi tushunchalar keltirilgan bo‘lsa, boshqa bir adabiyotda adabiy ta‘limdagi yozuvchilarning ijodiy faoliyati yuqoridagi adabiyot darsligiga nisbatan to‘liq keltirilmagan.

Ba‘zi bir dastur va darslikda keltirilgan ma‘lumotlar 5-sinfdan 9-sinfga yetib kelganda ham o‘quv fanining mazmuni deyarli o‘zgarishga uchramagan. Bunda o‘qitish tizimida ba‘zi bir kamchiliklar ko‘zga tashlanadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimi uzviyligini ta‘minlashda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatish uchun ushbu yo‘nalishdagi adabiy-nazariy tushunchalar hajmini qayta qarab chiqishga to‘g‘ri keldi. Jumladan, 5-sinf dasturidagi adabiy-nazariy tushunchalar tahlil qilindi. Ushbu dastur materiallarida nazariy tushunchalarning yoritilishidagi



qat'iylik belgilanmaganligi aniqlashtirildi. Ba'zi o'rinlarda 5-sinf o'quvchisi uchun murakkab bo'lgan terminlarning izohlarsiz berilganligi o'qituvchidan hushyorlikni talab qiladi.

Boshqa bir dasturda nazariy materiallarning har bir sinf bo'yicha yoritilishida dasturning yo'naltirilishi nazariy materiallar orqali badiiy so'z san'atining shakllantirishi nazarda tutilgan. Bunda tadqiqot markazida voqyealar tizimi tushunchalari, kompozisiya, umumiy bog'liqlik, muqaddima, xotima qaralib yuqoridagi dasturga nisbatan, asar tuzilishini o'rgatish va nutq o'stirish muhimligi ko'zda tutilgan. Ishning umumiy ilmiy qaralishi bu yo'nalishda dasturlarning variativ emasligi tahlil jarayonida ularni bir-biriga solishtirish va ma'qulini tanlash imkoniyatini bermaydi.

Yana bir dasturda har bir sinf dasturining ta'limi o'quvchida ma'lum bir kompetensiyani aniqlashtirish va adabiy turning muammolariga qaratilgan adabiy ta'limdagi asosiy ta'limot hisoblanishi ta'kidlangan. 5-sinfda badiiy adabiyot janrlari deyarli yoritilmagan, ayrim badiiy tasvir vositalari esa tanish bo'lgan tushunchalar kabi sanab o'tilgan xolos.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha tahlillarda mualliflar tomonidan kelitirilgan adabiy-nazariy tushunchalar adabiy ta'limning imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmoqda.

Adabiy ta'limda u yoki bu material haqqoniy qaralganda, ular talab darajasida emasligi aniqlandi. Bunda keltirilgan adabiy-ta'lim tushunchalari ilmiy dunyoqarashning boshlang'ich tushunchalardan iboratligi, ma'lumotlar yetarli darajada yoritilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Badiiy-adabiy tushunchalar 5 – 9-sinflar uchun dastur va darsliklar doirasida adabiyot o'qitilishi va innovatsion pedagogik texnologiyalar nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish va bir kursni tahlil qilishni muhim, deb hisobladik va o'qitishning optimal variantini yaratish xulosasiga keldik.

Keng ko'lamdagi adabiyot darslarida nazariy materiallarni o'qitilishiga e'tibor kam qaratilgan. Ushbu dasturda adabiyot fanini o'quvchilar yetarli darajada o'zlashtirishi uchun ba'zi o'qitish metodlariga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Eng muhimi tushunchalarni o'zlashtirishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish nazarda tutilishi kerak.

5–9-sinf o'quvchilarining yuqoridagi dastur bo'yicha adabiyotga doir tushunchalarning amaliy jihatdan o'zlashtirilishi qiyin kechmoqda. Shuning uchun ma'lum bo'ldiki, 5 – 9-sinf adabiyot darslarini o'qitishda o'quvchilar ongini nazariy materiallar bilan boyitish va adabiy ta'limdagi boshlang'ich tushunchalarga ega bo'lishini ta'minlash, adabiyot o'qitishdagi 5-sinf materiallarining 9-sinf bilan bog'liqligini yoki 9-sinf va 10 – 11-sinf materiallari bilan bog'liqligini ta'minlash bilan o'qitish muhim. Bizning fikrimizcha, 9-sinf va yuqori sinf dasturlarida o'qitish metodikasida bir to'xtamga kelinmaganligi yoki koordinatsiyalanmaganligi tufayli biz tomonimizdan ta'limda adabiyotni o'qitishda bir to'xtamga kelish va uzviylikni ta'minlash ishlab chiqish maqsadi qo'yildi, chunki dasturlarda uzviylik tushunchasi kam yoritilgan. Shuning uchun ushbu yo'nalishdagi o'qitish tizimini takomillashtirib,



o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarish nuqtayi nazaridan metodik tavsiyalarni berishni lozim, deb topdik.

Bugungi kunda amal qilinayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirish davr taqozosidir. Bunda pedagogik va axborot texnologiyalarni ta'lim tizimiga olib kirish ta'lim oluvchilarni o'qitishni jadallashtiradi.

Pedagogik texnologiya elementlarini dars jarayonida qo'llash o'ziga xos afzalliklarga ega. Jumladan, ta'limiy jarayon muayyan ketma-ketlikda, ya'ni tizimli tashkil etiladi. Loyihalashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- O'quv predmetining maqsadini aniqlash;
- DTS bo'yicha o'zlashtirilishi talab qilinadigan o'quv elementlarini aniqlash;
- Har bir o'quv elementini o'zlashtirish maqsadini belgilash;
- Ta'lim vositalarini o'z o'rnida (optimal) tanlash;
- O'quv elementlarining mazmunini didaktik tamoyillarga asoslangan holda o'quvchiga singdirish usullarini belgilab olish;
- O'quvchi faoliyatini baholash usuli va mezonini aniqlab olish;
- Subyekt(o'qituvchi) faoliyati natijasi ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yilgan maqsad bilan taqqoslanadi, ya'ni ta'lim natijasi tahlil etiladi.

Faqat ta'lim mazmunida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash bilan ta'lim samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun butun ta'lim tizimini yaxlit ravishda uzviylik hamda tizimlilik tamoyillari asosida qayta qurish lozim. Buning uchun hozirgi kunda o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash bilan birga ushbu dasturlar asosida yaratiladigan o'quv-metodik majmualar o'rtasidagi mavjud bo'lgan nomutanosibliklarni bartaraf etish va ularni yangi o'qitish usullari yordamida tizimlashtirish samarali bo'lishi mumkin. Adabiy ta'limni tashkil etishda innovatsion ta'lim shakl va metodlaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichi uchun tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda o'quvchi va talabalar egallashlari zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal hajmi belgilanadi. Maktab adabiy ta'limining ilk bosqichi boshlang'ich sinflarda "Alifbe"dan boshlanib, so'ng "O'qish", o'rta maktabda "Adabiyot" o'quv predmeti bilan davom ettirilishi yaxshi ayon. Bunda o'quvchilar tadrijiy holda harf va tovush, ularning hosil bo'lishi, bo'g'in, so'z, uning talaffuzi va imlosi, so'z birikmalari, gap tuzish, matn yaratish kabi savod o'rgatish bilan bog'liq dastlabki mashqlar hamda badiiy-estetik nutq, ijodiy tafakkurni o'stirish bilan tanishtirib boriladi. Bunda, albatta, boshlang'ich ta'limning Davlat ta'lim standartlarida belgilangan ona tili, o'qish, matematika, tabiat, inson va jamiyat kabi ta'lim sohalari mazmuni integratsiyasiga amal qilinadi.

Amaliy tajriba va tavsiyalar. Inson va jamiyat ta'lim sohasi tarkiban o'ziga odob-axloq, aqliy va jismoniy tarbiya, huquq hamda iqtisodga oid ko'plab tushunchalarni qamrab oladi. Adabiy ta'lim jarayonini uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida tashkil etish orqali o'quvchilar ma'naviy kamoloti hamda o'quv-biluv jarayoni samaradorligi ko'zda tutiladi. Bu borada uzviylik va uzluksizlikning quyidagi shakllarini qo'llash ijobiy samara beradi:

1. Mavzularni tadrijiy taqdim etish. Bunda o'quv materiallari orasidagi aloqadorlik ta'minlanadi. Berilgan o'quv materiali bilan avvalgisi bir-birini takrorlamaslik shartiga quriladi, asosan, biri ikkinchisini to'ldirishi, o'rganilmagan yangi ma'lumotlar o'rin olishiga e'tibor qaratiladi. Masalan, A.Qodiriy ijodi 5-sinfda "Uloqda" hikoyasi, 7-sinfda "Mehrobdan chayon", 9-sinfda "O'tkan kunlar", akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ham mazkur romanlardan parchalar o'rganish shaklida taqdim etiladi. Bu kabi tamoyil uzluksiz adabiy ta'lim jarayonida Cho'lpon, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor kabi adiblar ijodini o'rganish misolida ham kuzatiladi. Lekin akademik lisey yoki kasb-hunar kollejlari "Adabiyot" dasturlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganiladigan ayrim asarlarning aynan o'zi qayta berilishi yoki shu asarning boshqa boblaridan parchalar kiritish orqali takrorlarga yo'l qo'yilgani kuzatiladi. Bu esa uzluksiz ta'lim bosqichlari o'quv reja va dasturlari orasidagi nomutanosiblikning kelib chiqishi, ya'ni uzviylik va izchillikning buzilishiga sabab bo'ladi. Masalan: a) A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Kecha va kunduz", M.Shayxzodaning "Toshkentnoma", Mirtemirning "Onaginam", "Bulut", S.Ahmadning "Ufq", P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", E.Vohidovning "O'zbekim", A.Oripovning "Genetika", O.Hoshimovning "Dunyoning ishlari", O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi" asarlari va boshqalar;

b) muayyan adib ijodi haqidagi ma'lumotlarning bir-birini to'ldirib boyitishini, asosan, shoir yoki yozuvchi ijodiga oid ma'lumotlar yoki turli janrlardagi asarlarning oddiydan murakkabga tamoyiliga tayanib berilishi misolida asoslash mumkin. Xususan, adiblar umrbayoni, ijodiy merosi bo'yicha materiallar yuqori sinflarda quyi sinflarga nisbatan atroflicha yoritilgani bilan farqlanadi. Bunda, albatta, o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olinadi.

2. O'quv dasturlaridagi uyg'unlikni birlashtirish. Mavzulararo uyg'unlik takror beriladigan taftologiya asosidagi o'quv materiallariga barham beradi. Masalan, boshlang'ich sinflarda muayyan fasl, mavsum bilan bog'liq o'zgarish yoki tabiat hodisalari "Atrofimizdagi olam", "O'qish" yoki "Ona tili" darsliklaridagi mohiyatan o'xshash ma'lumotlar o'rniga faqat "O'qish" kitobida o'sha mavzuning xususiyatlarini batafsil yoritilgan matn, ma'lumot, rasm yoki illyustratsiyalarni kiritish mumkin.

Bunday uzviylik yuqori sinflarda esa "Kimyo", "Geografiya", "Fizika" hamda "Biologiya" fanlari bo'yicha mushtaraklikni yuzaga keltirish mumkin. Shuningdek, muayyan qahramon ruhiyatidagi ichki kechinmalarni tahlil qilishda "Psixologiya", tashqi portret ifodasida "Tasviriy san'at" va "Adabiyot" fanlari o'rtasidagi integratsiyaga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Masalan, badiiy asardagi qahramon ichki dunyosiga xos mazkur bilish jarayoni psixologiyadagi "xayol" tushunchasi, so'z etimologiyasi va ma'nosiga asoslanib izohlanishi kutiladi.

Psixologiyada:

"Xayol tafakkur singari bilish jarayonlaridan biri bo'lib, u insonning ichki va tashqi xususiyatli va izlanishli faoliyatida, muayyan darajaga ega bo'lgan muammoli vaziyatning vujudga kelishi va hal qilinishida ishtirok etadi" [6; 21-b.].

Tilshunoslikda (izohli lug'atda):

Xayol – arabcha o'ylash, tasavvur qilish; orzu, g'aroyib istak; arvo.



1. O'ylash, fikrlash jarayoni; o'y, fikr. *Har kallada ming xayol.* Maqol.

2. Tasavvur. *Gulnorning ko'zlari, yuzi yolg'iz Yo'lchining xayollaridagina kuladi, jilvalanadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. [Boburning] *Xasta xayolida birdan qilich tutgan Tanbal gavdalandi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

3. Orzu, fantaziya. *Istiqbolning shirin xayollariga ko'milgan holda Maxdum asr namozi uchun tahorat olar edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Ammo o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylaganlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish!* A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

4. Es, xotira. *O'shanda bu qiz uning [Yodgorning] nazarida farishtadek jonlangan, xayolida allanechuk muqaddas bir iz qoldirgan edi.* O'.Hoshimov, Qalbingga kuloq sol [5; 373-b.].

O'quv dasturlaridagi uyg'unlikni birlashtirishda atrof-muhitdagi jismlar, hodisalarning fizik, kimyoviy xossalari hamda badiiy ifodasi o'rtasidagi umumiylikka e'tibor qaratiladi.

3. Modulli bog'lanish. Bunday bog'liqlik turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalarning yaxlit tizim holida taqdim etilishiga imkoniyat yaratiladi. Xususan, aniq, tabiiy yoki ijtimoiy yo'nalishdagi fanlarga oid bilimlar (al-Farg'oniy, Beruniy, al-Xorazmiy, ibn Sino, Mirzo Ulug'bek hayoti va ijodini mufassal yoritadigan asarlar) ma'lum tizimga asoslanib o'rganish maqsadiga tayaniladi. Rejada aynan bir mavzu qayd etilgan tizim doirasida bir marta, lekin uzviy bir butunlikda berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, qomusiy olimlar ijodi, jumladan, Forobiyning ideal jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqidagi ilmlar yoritilgan "Fozil odamlar shahri", Beruniyning turli xalqlar yil hisobi, kalendari, ilm-fani, urf-odat va e'tiqodlari bilan bog'liq "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlardan mavzuga oid o'rinlarni shu maqsadda ko'zlab kiritish fikrimiz isbotidir. Bu esa quyidagilarda o'z samarasini beradi:

a) ta'lim oluvchilar vaqtini tejaydi, bilish jarayonlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

b) bir xil mazmundagi materiallarga ortiqcha kuch sarflanishining oldini oladi;

v) davlat tomonidan ta'limga ajratiladigan mablag'ni tejashga zamin yaratadi.

4. Integrativ dasturlar. Bir qancha o'quv predmeti yoki o'quv fanlariga tegishli mavzularni uyg'unlashtiradigan bunday turdagi dasturlar o'quv rejadagi predmetlar soni oshib ketganligini hisobga olib yaratilishi zarur. Bunday mazmundagi dasturlar ham pedagogik, ham o'quv soatlari hajmini iqtisod qilish nuqtayi nazaridan foydalidir. Jumladan, "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Yo'l harakati qoidalari" kabi fanlarni "O'qish" dasturlariga uzviylashtirish kabi.

5. Mavzulararo bog'liqlik. Muayyan o'quv predmeti doirasidagi o'quv materiallari boshqa bir predmet doirasidagi o'zaro yaqin o'quv materialiga izchillikda beriladi. Matematika darslarida o'quvchilarga berilishi mumkin bo'lgan masalalardan "Iqtisodiy bilim asoslari", "Adabiyot" yoki "Ona tili" darsliklarida aqlni charxlash, tasavvurni kengaytirish, bog'lanishli nutqni rivojlantirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Masalan:

"Bir to'da g'oz uchib borar ekan. Bir g'oz kelib: "Ey yuz g'oz, salomat bormisiz?" debdi. Shunda ulardan biri aytibdi: "Biz yuz g'oz emasmiz, yana biz



miqdori g'oz bo'lsa, yana bizning yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo'lsa, u vaqtda sen qo'shilsang yuz g'oz bo'lamiz" debdi. Osmondagi g'ozlar qancha ekan?

Javobi: 36 ta. Ya'ni $-36+36+18+9+1=100$ ".

Mazkur mazmundagi topishmoqlarning javobini topishda, albatta, matematik amallardan tashqari mantiqiy tafakkurni shakllantirish maqsadiga erishish nazarda tutiladi.

Axloqiy-estetik tarbiya, nutq o'stirish, kommunikativ muloqot me'yorlari, atrof-muhitga doir tushunchalarni ona tili va adabiyot fanlari mazmunidagi asarlar (hikmatlar, maqollar, she'rlar, mashqlar) vositasida yetkazish maqsadi nazarda tutilsa, "Iqtisodiy bilim asoslari", "Odobnoma", "Konstitutsiya saboqlari" kabi fanlariga ajratilgan vaqtni tejash va o'quv yuklamasini qisqartirishga zamin yaratiladi.

Xulosa. Yuqoridagi kabi maqsadlarga erishish uchun professor R.G'.Safarova ta'kidlaganidek, "ta'lim mazmunida o'quv fanlarini integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish; ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirish talablaridan kelib chiqqan holda, o'quv rejasini takomillashtirish; integratsiyalashgan mazmunga ega bo'lgan o'quv dasturlari va darsliklarning yangi avlodini yaratish; integratsiyalashgan ta'lim mazmunini tanlash, ilmiy jihatdan asoslash va amaliyotga joriy etish lozim" [4; 16-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism // S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. – T.: Sharq, 2015. – 176 b.
2. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. II qism // S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. – T.: Sharq, 2015. – 176 b.
3. Baratov Sh.R. va boshqalar. Psixologiyadan izohli lug'at. – T.: Fan, 2008. – 112 b.
4. Safarova R.F. Modulli o'qitish jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchi harakatlari orasidagi uzviylik va uzluksizlik // Uzluksiz ta'lim jurnali. – T., 2016. –№ 3. – B. 16.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 608 b.
6. G'oziyev E.G'. Psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2003. – 183 b.